



ВУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ILMIY AXBOROTI

4/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



4/2024



@bukdu_uz



@bukdu1



@bukdu1



www.bukdu.uz



≡

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 4, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoiri Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Safarov F.S.	O'zbek adabiy tilida ko'plik ma'nosining ifodalanishi va tejamkorlik	4
Akhmedova R.A.	Antropocentric aspect of phraseological units with the component "red"	12
Alieva N.X., Mukhtoraliyeva F.A.	The role of translation in the enrichment of languages: analysis of some neologisms presented in «Steve Jobs» by Walter Isaacson	17
Barnoyeva Z.S.	O'zbek leksikografiyasida boshlang'ich sinf o'quv lug'atlarini tuzishning ahamiyati	22
Barotova N.Sh.	O'zbek kinodiskursida "milliylik" obrazini yaratishning tamoyillari	27
Ganieva O.Kh., Khakimova D.M.	Concept of term definition and its characteristics	32
Kurbonova G.S., Pulatova U.B.	Frazeologik konsepsiyalar talqini	37
Jumayev E.B., Nurullayeva G.X.	O'zbek va nemis tilida shaxs ifodalovchi vositalar	45
Raxmonova Y.X.	Matn tili va tarjima muammolari	50
Ro'ziyev Y.B., Halimova Sh.Sh.	O'zbek va nemis tillarida o'tgan zamonning voqelanishi	55
Turayeva D.M.	Muallif punktuatsiyasining yuzaga kelishi va punktuatsion tizimdagi yangi an'analar	61
Xodjayeva D.I.	Lingvodidaktik terminologiya tadqiqot obyekti sifatida	65
Yaqubova M.M.	Tarjima jarayonida asl matnning semantik va pragmatik jihatlarini saqlash masalalari	70
Ахмеджанова С.Дж.	Сбор и анализ корпусных данных для узбекского и русского языков	76
Жўраева И.А.	Инглиз ва ўзбек антропонимик луғатларида атокли отларнинг берилиш усуллари	81
Шермухамедова Н.А.	Двуязычный и многоязычный устный корпус	87
Qobilova N.S.	Til tejamkorligi nazariyasining tadqiq qilish tamoyillari	92
Qodirova H.X.	Badiiy diskurs tarjimasida kommunikativ-funksional yondashuv	98
Yuldasheva F.E.	Expression of the modesty maxim in communication	102
Рабиева М.Ғ.	Эвфемизмларнинг дискурсив турлари ва уларнинг таржима стратегияларини белгилашдаги роли	106
Ataeva G.B.	The power of idioms in business English: communicating with impact	117
Karimova D.H.	Tarjimada variantlilik hodisalarining asosiy belgilari xususida (Aka-uka Grimm ertaklarining o'zbekcha tarjimalari misolida)	122

Nurova Y.U.	O'zbek xalq paremalaridagi etnonimlarda omonimik munosabat	127
Jumayeva O.I.	Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida emotsionallik konseptlarining ifodalanishi ("Baxt" va xursandchilik" konseptlari misolida)	131
Axmedova D.B.	Jahon va o'zbek leksikografiyasida maxsus lingvistik lug'atlar, ulardan semantik kengaytmada foydalanish imkoniyatlari	136
Саидкулова М.С.	Роль структуры жанра в разграничении функциональных стилей современного русского языка	140
Hikmatova A.Q.	Simile and its characteristic features in English and Uzbek languages	147
Abulova Z.A.	"Ikki eshik orasi" romanida paremalarning tutgan o'rni	151
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Doniyorova M.T.	Adabiyotshunoslikda uslub tushunchasi	155
Haqberdieva G.H.	Differentiation of proverbs and sayings in Uzbek and English languages	159
Maxmudova M.M.	Y.V.Gyotening "G'arb-u Sharq" devoni tarjimalariga xos xususiyatlar (S.S.Buxoriy va M.Shayxzoda tarjimalari asosida)	165
Nodirova F.X.	Sa'dulla Hakim she'rlarida xalqona ohanglar	169
Norova M.B.	Dunyo va o'zbek adabiyotshunosligida ramz tadqiqi	173
Kasimova R.R., O'roqova M.O'.	Artur Konan Doylning ingliz adabiyotida tutgan o'rni	177
Rakhimova Sh.R.	Fragmented narratives and consciousness streams: the study of modernist techniques in contemporary literature	181
Safarova Sh.A.	"Hayrat-ul Abror" dostonidagi munojot boblarining manbalari va badiiyati	186
Кодирова З.Б.	Этапы развития детской британской литературы	190
Очилова Д.С., Хамдамова С.Б.	Взаимодействие традиций и инноваций в современной американской поэзии	194
Axmatov A.H.	Ikkinchi jahon urushining adabiy muhitga ta'siri	198
Hamroyeva S.B.	The impact of colonialism on indigenous cultures in Thomas King's "Green grass, running water"	202
Khajieva F.M.	Exploring Gerard Genette's theory of transtextuality	206
Буранова Ж.А.	Мифологические мотивы в творчестве Чингиза Айтматова и у современных татарских литераторов	214
Sodiqova D.T.	Muslihabegim Miskinning badiiy san'atlardan foydalanishdagi shoirlik mahorati	219
Hikmatova A.Q.	Descending into wonderland: the rabbit hole as a portal to altered states of consciousness and reality in Lewis Carroll's	225

	narrative	
Мурадова Х.Б.	Комплексный анализ лингвистических и структурных особенностей английского фольклора в социальных сетях	229
Jalilova Z.S.	Epik turda inson tasviri (Xurshid Do'stmuhammad asarlari misolida)	235
Axmatov A.H.	Ne'mat Aminovning Buxorodagi adabiy faoliyati (arxiv materiallari asosida)	240
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Nurmatova M.F.	Ko'ngil – taxti amiri	245
JURNALISTIKA *** JOURNALISM *** ЖУРНАЛИСТИКА		
Xamroyeva Sh.Sh.	Jurnalistikada universallashuv va ixtisoslashuv masalalari	249
“NAVOIY GULSHANI”		
Sayliyeva Z.R.	Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro	253
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Galimov R.R.	Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda Pokiston va O'zbekiston hamkorligi	257
Нормаева М.Г.	Барьеры рекрутирования женщин в политической карьере: обзор современных практик в зарубежных странах	261
Saparboyev K.K.	Constitutional basis of state policy on youth	268
Бозоров А.М.	Жиноят процессуал ва миллий қонунчилик нормаларини қўллашдаги муаммолар ва уларни такомиллаштириш истиқболлари	273
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Klichev O.A.	Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi elchilik tortiqlarining almashinuvi	278
Jumayeva N.A.	Quyí Zarafshon vohasida ziroatchilik homiysi - Bobodehqon bilan bog'liq urf-odat va marosimlar (XIX asr oxiri - XX asr boshlari)	282
Эркинова Н.М.	Сугднинг илк ўрта асрлардаги сиёсий ва маданий маркази бўлган Кеш хусусида айрим мулоҳазалар	286
Tursunov A.S.	O'zbekistonning janubiy viloyatlari shaharlarida urbanizatsiya jarayonlari tarixshunosligining tahlili	290
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGICS *** ПЕДАГОГИКА		
Bakhromova A.A.	Modern methods of working with physical problems in the teaching of Physics	294

"IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA PAREMALARNING TUTGAN O'RNI

Abulova Zilola Azimovna,

Buxoro davlat universiteti fakultetlararo chet tili kafedrası dotsenti

z.a.abulova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada "Ikki eshik orasi" romanida qo'llanilgan maqol, matal, ibora va hikmatli so'zlarning ayrimlari tahlilga tortildi. Paremalarning asarda tutgan o'rni, vazifasi qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi misollar yordamida izohlandi. Yozuvchi dunyoqarashi va fikr-mulohazasini, qahramonlar o'y-fikrlarini kitobxonga yetkazishda paremalarning o'rni qanchalik muhimligi tahlillar yordamida o'z isbotini topdi. "Ikki eshik orasi" romanini bezab turgan paremalar o'zining ko'lami, rang-barangligi va qiymati bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: roman, parema, maqol, matal, ibora, hikmatli so'z.

РОЛЬ ПАРЕМ В РОМАНЕ «МЕЖДУ ДВУМЯ ДВЕРЯМИ»

Аннотация. В статье были проанализированы некоторые пословицы, поговорки, фразы и мудрые слова, использованные в романе «Между двумя дверями». На примерах объяснялась роль парем в произведении, насколько важна их функция. Насколько важна роль парем в передаче читателю мировоззрения и суждений писателя, мыслей героев, нашла своё доказательство с помощью анализа. Пареммы, украшающие роман «Между двумя дверями», отличаются от других произведений своим масштабом, разнообразием и ценностью.

Ключевые слова: роман, парема, пословица, поговорка, фраза, мудрое изречение.

THE ROLE OF THE PAREMAS IN THE NOVEL «BETWEEN TWO DOORS»

Abstract. Some of the proverbs, matals, phrases and proverbs used in the novel "between the two doors" were subjected to analysis in the article. The role of paremas in the work was explained using examples of how important their function is. The writer's worldview and feedback, and how important the role of paremas in communicating the characters' thoughts to the reader, have been proven by analysis. The paremas that adorn the novel "Between Two Doors" stand out from other works in their scope, colour and value.

Keywords: novel, parema, proverb, saying, phrase, wise saying.

Kirish. Paremiologiya so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib, paranomia – hikmat va logos – ta'limot degan ma'noni bildiradi. Mazkur soha dunyo tilshunosligida ma'lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi deya e'tirof etiladi. Ya'ni ma'lum bir xalqning turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamyatga bo'lgan munosabatini, kuzatishlar va tajribalarga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ularini, ijobiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasiga paremiologiya deyiladi. Bu kabi birikmalarni to'plash bilan esa paremiografiya sohasi shug'ullanadi. Xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va shu bilan birga, xalq donishmandligi namunasi sifatida e'tirof etilgan maqollar badiiy adabiyotning nasriy asarlarida ham juda keng qo'llaniladi. Manbalardan ma'lumki, har bir maqolning dunyoga kelishi bejizga emas. Chuki "otalar so'zi"ning ortida chuqur falsafa, tajriba, sinalgan, boshdan kechirilgan voqea-hodisa yotadi. Maqolning eng asosiy jihati fikr aniq, mazmun lo'nda, xulosa tugal bo'lishidir.

Asosiy qism. Maqolada o'zbek xalqining ardoqli adibi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida foydalanilgan maqollar tahlil qililib, ularning yozuvchi ijodida tutgan o'rni muhim ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Adib maqollarni asar tilining uslubi, nutqning kimga tegishli ekanligini inobatga olib maqollarni qo'llaydi. Asar qahramonlari yoki yozuvchi tilidan aytilgan maqollar bir-biridan farq qiladi. Maqollardan foydalanish orqali yozuvchi o'z fikrini qisqa-lo'nda, tushunarli va ta'sirli qilib bayon qilishga erishadi. Ba'zida yozuvchi birgina maqol orqali butun bir voqeani izohlashga erishadi. Maqollardan achchiq kinoya maqsadida yoki yengil kulgu qilish uchun ham foydalanadi.

Yozuvchilarning asarlarini o'rganish, tahlil qilish adabiy til namunalari bilan tanishish imkonini beradi. Unda yozuvchining qanchalik mahoratga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shunday bir iste'dodga, mahoratga ega yozuvchilarimizdan biri bu O'tkir Hoshimovdir. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, uning tilidan, uning nodir, topilmas so'zlaridan naqadar mahorat bilan unumli foydalanganiga guvoh bo'lamiz. Bu so'zlar tizimi bevosita uslubiya, badiiy tasvir vositalari bilan bog'liqdir. Yozuvchining eng ko'p va sevib o'qilgan asarlaridan biri "Ikki eshik orasi" romanini olaylik. Bu asarda o'z davrining muhim muammolari qalamga olindi. Uning asosiy qahramonlari esa ikkinchi jahon urushi og'irliklarini yelkasida ko'targan, unda g'olib chiqqan kishilardir. Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma'nosi, insonning insoniylik sha'ni, burchi, mas'uliyati, e'tiqodi, maqsadlarini ko'taradi, kitobxonni ular haqida o'ylashga chorlaydi. Asarda o'nlab katta – kichik obrazlar mavjud. Undagi muallim Samadov, Rashid abzi, Parcha opa, Ochil, Zuhra kelin kabi qahramonlardan tortib, asarning markaziy qahramoni Muzaffarga qadar barchasi murakkab, chigal taqdir egalari. Asar sarlavhasi ham juda chiroyli tanlangan. "Ikki eshik orasi" deganda inson umrini, ya'ni tug'ilgandan o'lgungacha bosib o'tgan yo'lni nazarda tutadi. Har bir asarda ibora, hikmatli so'z va maqollar albatta topiladi, lekin bu asarda ularning o'mi bo'lakcha. Iboralar hayotning deyarli hamma sohalarini qamrab olgan. U har xil soha kishilari tomonidan ularning o'zaro muomalalari, hazil-mutoyibalari, munozaralari, do'stona suhbatlari jarayonida yaratiladi va qo'llaniladi. Ular asosan milliy xarakterga ega bo'ladi. Har bir xalq farzandi nutqida qo'llanilayotgan ibora o'sha xalq vakillariga yaqin harakatlar, rasm – nusmlar, har xil odatlar asosida vujudga keladi. Asarda ham iboralar juda ko'p uchraydi. Masalan: "Chuchvarani xom sanabsan", "Jo'jani kuzda sanaymiz", "Boshini ikkita qilmoq", "Sovuq xabar", "Ko'ziga cho'p solmoq", "Yulduzi yulduziga to'g'ri kelmoq", "Bir qoshiq suv bilan yutguli", "Etni timoqdan ayirmoq", "Ichagini boshiga salla qilmoq", "Bo'rini eslasang, qulog'i ko'zga ko'rinadi" kabi iboralar personajlar nutqini yanada boyishga xizmat qilgan. Maqol xalq orasida kun sayin tug'ilib turganidek, ota – bobolar so'zi sifatida avloddan avlodga meros bo'lib o'tadi. U shaklan qisqa bo'lib, voqeilikni yoyiq holda ifoda qiladi. Shunday maqollardan asarda talaygina. "Jon omon bo'lsa, mol topiladi", "Suymaganga suykalma", "Oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'u", "Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi", "Yaxshi kelsa qut, yomon kelsa yut", "Ot o'rini toy bosar", "Sabrning tagi sariq oltin", "Mol egasiga o'xshamasa, harom o'ladi", "Bo'sh qop tik turmas", "Ot aylanib qozig'ini topadi" kabi maqollar esa asar ta'sirchanligini oshirgan. Tugal fikrni anglatuvchi, o'tkir mazmunli, qisqa va lo'nda ibora, bayt, jumla hikmatli so'z deyiladi. Ular voqealar tahlili zamirida tasvir ichida muallif muddaosining lo'nda ifodasi tarzida "bexosdan", "favqulodda", "qissadan hissa" tarzida paydo bo'lishi mumkin. Ba'zi hikmatli so'z quyma holga kelib, ommaviy qo'llanishga o'tgach, maqolga aylanadi.

O'tkir Hoshimov o'z ismiga monand o'tkir so'z ustasidir. Uning deyarli barcha asarlarida hikmatli so'zlarni uchratamiz. Masalan, "Amal – asov otdek gap. Qo'lingdan bir chiqardingmi, ikki dunyodayam yetolmayсан. Ot-ku oxir – oqibat egasiga qaytib kelsa kelar, lekin amal qaytmaydi. Uni allaqachon boshqasi egartib minib olgan bo'ladi", "Sadoqat bilan xiyonatning orasi shunchalik yaqinmi?", "Rost bilan yolg'onning o'rtasi – to'rt enlik" degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi – to'rt enlik ekan. "Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon. Maqsad shu. Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolg'on gapirayotgan odam ham ichida, baribir rostini o'ylaydi" kabi ma'noli so'zlardan foydalangan. Odamzotning umri u eshikdan kirib bu eshikdan chiqib ketishdek gap. Ana o'sha ikki eshik orasidagi masofa hayot deb ataladi. Iboralar, maqol va hikmatli so'zlar o'rni, nafaqat asarlar, balki insonlar hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Ularni asarda ko'p yoki kam qo'llash bu yozuvchining mahoratiga bog'liq. Unda qo'llanilgan maqol, ibora, hikmatli so'zlar asarning ta'sirchanligini oshirgan, ular orqali hayot manzaralari, insonlar munosabati yorqin aks ettirilgan va bu asar ko'rkiga ko'rk bag'ishlagan. Yozuvchi bularning uddasidan chiqqan, ya'ni o'z o'mida qo'llagan. Uni faqatgina bu asarida emas, balki hamma asarlarida ko'plab uchratishimiz mumkin.

Hatto uning faqatgina hikmatli so'zlarga bag'ishlangan "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarini misol qilish mumkin. Uning aytgan har bitta hikmatli so'zi insonlarga ibrat bo'la oladi. Uni insonlar mulohaza qilib, o'ziga kerakli bo'lgan ko'p narsalarni olishi mumkin. Faqatgina hikmatli so'z emas, balki maqollar ham ibrat namunasidir. Maqollar qadim-qadimdan, ota-bobolarimiz tomonidan, ko'rgan-kechirganlari asosida yaratilgan. Ularni asarda qo'llash kitobxonga tarbiyadir. Inson maqol, ibora va hikmatli so'zlarni yolg'izgina asarlardan o'qib qolmay, o'z nutqida ishlatsa, nutqi ravon, ta'sirchan va aniq bo'ladi. Shunday ekan, insonlar hayotida ularning o'mi ahamiyatlidir.

Asarning 13-bobida Qora amma hikoyasi keltirilgan. Bobning 1-hikoyasi "Yaxshi kelsa – qut, yomon kelsa – yut" deb nomlangan. Maqolning sarlavha darajasiga ko'tarilishi ekspressivlikni yanada kuchaytirgan. Har bir maqol yoki matalning tag zamirida haqiqat mavjudki, yuqoridagi maqol ham insonlarning yon atrofdagilarini kuzatish va shu asnoda o'rtirilgan tajribasiga asoslanib yaratilgandir. Romanda ayollar

obraziga ham keng o'rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, Qora amma ajralib turadi. Qora amma — mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o'zbek onalarining siymosi tasvirlangan. U boshiga tushgan barcha ko'rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'zida yashashga kuch topadi. qora amma olti farzandini yerga qo'yib, bittagina Kimsaniniyer-u ko'kka ishonmasdan katta qildi. Yurtida mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-yurt ishiga kamarbasta bo'lsin deb yolg'iz farzandi — Kimsanini urushga kuzatadi. Biroq o'g'li urushdan qaytmaydi, lekin mushtipar ona bu xabarga ishonmaydi. Hattoki, yillar o'tsada unga a'za ochmaydi. Ona... bu zotni ta'riflashga til ojizdir! Romanda har bir obrazning xususiyatidan kelib chiqib paremlar tanlanadi. Qora amma asarning boshidan oxiriga qadar ishtirok etgan muhim obraz bo'lganligi bois uning nutqida boshqa qahramonlarga qaraganda ko'proq paremlar uchraydi. Har bir nutqidan Yoshi ulug'ligi, tajribasi boyligi, hayot sinovlarida chiniquqanligi, o'ziga xos hayot falsafasiga ega ekanligi ufurib turadi. Ayniqsa, chuqur, purma'no maqol, matallardan foydalanishi kitobxon diqqatini o'ziga jalb qiladi. Nisbatan keng foydalanilmaydigan, ammo keng ma'noli, majoziy xarakterdagi paremlar Qora amma obrazi nutqida juda faol qo'llaniladi. Jumladan, "Yaxshi kelsa — qut, yomon kelsa — yut" maqolining aynan mazkur obraz tilidan aytilishi ham bejizga emas.

Frazeologizmlar ham paremalarning bir ko'rinishi bo'lib, ular badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida qo'llaniladi. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnda tadqiq va tahlil etilishi muhimdir. Frazeologizmlar badiiylilikni ochib beruvchi unsur hisoblanadi. Badiiy nutqqa o'zgacha joziha, ko'tarinki ruh, yengillik baxsh etadi. Frazeologizmlar biron narsa-hodisani atash, nomlash vazifasini bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Adabiy tilning sofligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalardan biri frazeologizm sanaladi. Frazeologik birliklarning eng ko'p badiiy matnda, qisman publitsistika, ilmiy ommabop matnlarda ham qo'llaniladi. Yozuvchi badiiy matnda frazeologik birliklardan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

1. Biror voqea-hodisani obrazli, ta'sirli ifodalash uchun: tili uzun, ilonni yog'ini yalagan, dunyoni suv bossa, uning to'pig'iga ham chiqmaydigan;
2. Turli holatlarni baholash uchun; frazeologizmlar salbiy va ijobiy bo'yoqqa ega: Uning ko'zlari olayib o'midan turolmay qoldi;
3. Badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: Xudoga shukur, ko'ngli joyiga tushdi;
4. Nutqda ekspressivlikni («ekspressiya» so'zi aslida lotincha so'z bo'lib, «kuchaytirilgan; ifodali, tasviriy» degan ma'nolarni anglatadi. Nutqning ta'sirchanlik xususiyatini ifodalaydi) ifodalash uchun;
5. Badiiy matnda satira va yumor hosil qilish uchun.

Yumor va satirani yaratishda frazeologizmlar alohida o'rin tutadi. Bu esa ularning ichki tabiati bilan bog'liq, chunki ko'pgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari ma'no nozikliklari bo'ladi. Frazeologizmlar badiiy asardagi qahramon nutqini, uning so'zlash ohangida yumoristik yoki satirik ishorani ta'kidlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday xususiystga ega bo'lgan frazeologizmlardan O'tkir Hoshimov o'z ijodida o'rinni foydalangan: *Ariq qazib bo'lmasa, yer qazib bo'lmasa... o'zimizniyam patagimizga qurt tushib turibdi* [4].

Frazeologizmlar badiiy matnga estetik zavq beradi. Kitobxon asarini o'qish jarayonida frazeologizmlardan o'ziga boshqacha emotsiya oladi. Yozuvchi ijodida qancha ko'p frazeologizmlarni ishlatsa, asarining qimmatini shunchalik oshadi. Yozuvchi asar qahramonining xarakterini, uning holatini, ichki dunyosini ochishda frazeologizmlardan foydalanadi. Frazeologik birliklarni badiiy matnda qo'llash juda murakkabdir. Bu birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy ma'nolar mavjud. Badiiy matnda, umuman, yozma va og'zaki matnlarda frazeologizmlar qo'llanilganda bu birlik bir qator vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning biri uzual, ya'ni lisoniy xarakterga ega bo'lsa, qolganlari okkazonal, ya'ni nutqiy (uslubiy) funksiyadir. Frazeologizmlarning ichki ma'nosi, ichki tabiati har qanday badiiy matnda ro'yobga chiqadi. Har bir yozuvchining frazeologizmlardan foydalanish uslubi va yo'nalishlari bo'ladi.

O'tkir Hoshimovning «dkki eshik orasi» asarida qo'llangan frazeologik birliklarni to'plab o'rganish oqali yozuvchining o'ziga xos uslubi va yo'lini tahlil qilishga harakat qildik.

- 1) burnini tiqmoq; s) tumshug'ini tiqmoq (salbiy ma'no);
- 2) chovlisini solmoq og'zi qulog'iga yetmoq; ma'nosi: xursand bo'lmoq. Kechqurun og'zim qulog'imga yetkudek bo'lib bir do'ppi yong'oq ko'tarib keldim.
- 3) olamdan o'tmoq; varianti: olamdan ketdi. Ma'nosi: o'lmoq. Meni shuncha o'limdan asrab qolgan odam shundoq ko'z o'ngimda olamdan o'tdi.
- 4) belida belbog'i bor; ma'nosi: mard. Endi... gapning po'stkallasi shu: belimda belbog'im bor deganing ertalab hasharga kelaver.

LINGUISTICS

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir. Frazeologizm va so'z bo'lmasa, nutqiy-sintaktik butunlik ham bo'lmaydi. Turli xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologizmlar majmuyi tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi. Shu bilan birga xalq tilining taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarni o'qib, o'rganish va ularni tahlil qilish, tasniflash ma'lum ma'noda o'z xalqining tili haqida ma'lumotga ega bo'lishiga yordam beradi. Frazeologizmlar so'zlovchi nutqini ta'sirchan va kuchli emotsiyaga boy bo'lishini ta'minlovchi muhim birlik hisoblanadi.

Xulosa. Paremlar xalqning ma'naviy mulki bo'lib, xalq badiiy asarlarida turli maqsadlarda foydalaniladi. O'tkir Hoshimov ham xalq maqollari, iboralarini o'z asarlarida unumli ishlatib, ularning purhikmat va purma'no fazilatidan foydalanib, o'quvchi e'tiborini jalb qilishga erishadi. Yozuvchi maqolni ba'zan o'z asl holicha, bazan butunlay o'zgartirib o'z badiiy asarlarida qo'llab, ularning ta'sirchanligini, badiiyligini orttiradi. O'quvchini xalqqa yaqinlashtirishga erishadi. O'quvchi asarga o'z qadrdoni kabi munosabatda bo'lishga erishgan deya baralla aytish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev T. *O'zbek xalq maqollari*. – Toshkent, 2003.
2. *O'zbek xalq maqollari*. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
3. *O'zbek xalq maqollari*. – Toshkent: Sharq, 2012
4. O'tkir Hoshimov Ikki eshik orasi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1986.
5. *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi*. – Toshkent: Davlat milliy nashriyoti, 2003.
6. Azamatov M. *Hikmatlar xazinasi*. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1982.
7. Sayfullayeva R. Mengliyev B. va boshqalar. *Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma*. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – 416 b.
8. Abduazizov A. *Til nazriyasiga kirish*. – T.: 2010. – 150 b.
9. Yo'ldoshev B. *Hozirgi frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari*. – T., 2010.